

PRAGMATONIMLAR ONOMASTIK KONVERSIYANING TASHQI VA ICHKI TURLARI

*S.M. Axmadaliyeva,
oqituvchi, QDPI, Qoqon*

Sodda pragmatonimlar onomastik konversiyaning tashqi va ichki turlari asosida hosil qilinadi. Tashqi onomastik konversiyada onomastik sathga mansub bo'lmagan lug'aviy birliklar, ya'ni apellyativ so'zlardan toponimlar yasaladi. Bu hodisa sohaga oid lug'atlarda deapellyativatsiya, ya'ni apellyativning turdosh so'zlikdan atoqli otlar vazifasiga o'tishi, atoqli otlashuvi¹ deb nomlanadi.

Atoqli otlarning lug'aviy negizini faqatgina turdosh otlar tashkil qilmaydi, balki ularda sifatlar, sonlar, fe'llar, hatto olmosh, undov va taqlidiy so'zlar ham mavjud bo'ladi. Shu sababli bunday leksemalar majmuyini apellyativ, apellyativ leksika yoki lug'aviy asos (antroponimik asos, toponimik asos, kosmonimik asos, etnonimik asos kabi) deb yuritish o'rinlidir².

Shu o'rinda apellyativ nomlar va apellyativ leksika terminlariga berilgan izohlarni ko'rib chiqsak:

Apellyativ asosli nomlar –yasalish negizi turdosh so'zdan (atoqli ot emas) iborat bo'lgan atoqli otlar.

Apellyativ leksika – til leksikasidagi atoqli otlar tizimiga mansub bo'lmagan barcha leksemalar majmuyi³.

Onomastik konversiya usuli – apellyativ leksikaning hech qanday yasovchi vositasiz atoqli ot vazifasiga o'tishini anglatadi.

E.Begmatov o'zbek tilidagi onomastik apellyativlarni ikkiga bo'lish mumkinligini ta'kidlaydi: turdosh ot apellyativlar va atoqli ot apellyativlar. Atoqli ot apellyativlar atoqli otlarning ikkinchi (uchinchi) bor atoqli ot vazifaga

¹ Begmatov Э., Улуков Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. – Наманган, 2006. – Б.27.

² Begmatov Э. Ўзбек тили антропонимикаси. – Тошкент: Фан, 2013. – Б.94

³ Begmatov Э., Улуков Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. – Наманган, 2006. – Б.17.

ko'chishidir⁴.

Demak, atoqli ot apellyativlar, tranonimizatsiya terminlari bir atoqli otning boshqa atoqli ot vazifasiga o'tishi, ko'chishini anglatadi.

Onimik bosqichli (onimik stadiyali) atamasi ostida atoqli otning apellyativ bosqichsiz birdan hosil qilinadigan holati tushuniladi. Bunda ko'proq sun'iy nomlar paydo bo'ladi. Atoqli otlar nominativ-funksional xususiyatlariga ko'ra o'zaro farqlanuvchi, shu bilan birga, bir-biri bilan bog'liq va o'z navbatida biri ikkinchisiga qarama-qarshi lisoniy mavjudlikdir. Atoqli otlar yasaliş tamoyili jihatidan o'zbek tili so'z yasalişiga o'xshasa-da, bunday otlarning hosil bo'lishida ayrim o'ziga xosliklar ham mavjud. Shulardan biri atoqli otlarning atoqli otlardan hosil bo'lishidir. Bu hodisani apellyativ (turdosh ot) hamda boshqa so'z turkumlaridan yuzaga keluvchi konversiya va derivativ usulda yasalgan atoqli otlardan ham farqlash lozim.

A.Superanskaya onomastik konversiya terminini quyidagicha izohlaydi: "Onomastik tadqiqotlarda so'z yasalişining leksik-semantik usuli onomastik konversiya deb yuritilmoqda. Onomastik konversiya tildagi mavjud leksemalarning hech qanday o'zgarishsiz yoki sezilarsiz holdagi o'zgarishlar bilan atoqli ot vazifasiga ko'chishidir"⁵.

N.Uluqov tomonidan *ichki toponimik konversiya* asosidagi yasalişlarga nisbatan *tranonimizatsiya* terminini qo'llash maqsadga muvofiq bo'lishi ta'kidlab o'tilgan: "Tranonimizatsiya (lot. Trans –orasidan, ichidan + onimizatsiya) – biror tip atoqli otning boshqa tip atoqli otga o'tishi"⁶.

O'zbek tilining onomastik sathida bir onomastik birlikning boshqa onomastik birlikka o'tishi – tranonimizatsiya keng tarqalgan. Bu hodisa ichki onomastik konversiya deb ham nomlanadi. Tranonimizatsiya pragmatonimlarga ham xos bo'lib, bunda mahsulot yoki xizmat nomi antroponim, toponim, kosmonimlar va boshqa atoqli ot turlaridan hosil bo'ladi. Bu faqat atoqli otlar doirasida yuz beradi va obyektiv olam tarkibidagi mikroolamlarning o'zaro

⁴ Бегматов Э. Ўзбек тили антропонимикаси. – Тошкент: Фан, 2013. – Б.102

⁵ Суперанская А.В. Общая теория имени собственного. – М.: 1973. – С.115.

⁶ Бегматов Э., Улуков Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. – Наманган, 2006. – Б.84.

www.tadqiqotlar.uz

aloqadorligi hamda bog'liqligi mahsulidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Абдуллаев Б. Х. Ўзбек реклама лингвистикаси: назария ва амалиёт: Филол.фан. бўйича фалсафа доктори дисс. – Андижон, 2020, –142 б.
- 2.Ахтямов А. Реклама матнларининг ўзбек, рус ва немис тиллари мисолидаги прагмалингвистик таҳлили. Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. автореф. –Фарғона, 2022.
- 3.Бурханова М. Креолизатив матнларнинг паралингвопоэтик тадқиқи. Филол.фан. бўйича фалсафа доктори дисс. –Фарғона, 2022. –150 б.